

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA QO‘SHMA SO‘ZLAR**Polvanova Nafisa Muxitdinovna**

UrDU. Tayanch doktorant

nafisapolvanova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillarida qo‘sha so‘zlarning yozilishi, talaffuzi va imlosi borasida fikr yuritiladi, shaxsiy takliflar bildirildi va misollar bilan izohlaniladi.

Annotation: This article discusses the spelling, pronunciation, and orthographic features of compound words in Uzbek and English languages. It also presents personal suggestions and reflections, supported by explanatory examples.

Аннотация: В данной статье рассматриваются написание, произношение и орфографические особенности сложных слов в узбекском и английском языках. Также приводятся личные предложения и размышления автора, сопровождаемые пояснительными примерами.

Kalit so‘zlar: qo‘shma so‘z, so‘z birikmasi, til birligi, milliy til, o‘rganuvchi.

Key words: compound word, word combination, language units, national language, learner.

Ключевые слова: сложное слово, словосочетание, языковая единица, национальный язык, обучающийся.

O‘zbek va ingliz tillaridagi qo‘shma so‘zlarni qiyoslab o‘rganar ekanmiz, bu jarayonda biz bir qancha o‘xshash va farqli jihatlarga duch keldik. Ushbu jihatlarni har ikkala tildagi qo‘shma so‘zlarning imlosi hamda yozilishida birdek namoyon bo‘ladi. Avvalo, milliy tilimiz bo‘lmish o‘zbek tilida qo‘shma so‘zlar orfografiyasiga e‘tibor qaratsak, o‘zbek tilida qo‘shma so‘zlar yozilishiga ko‘ra 2 turga – *ajratib yoziladigan* hamda *qo‘shib yoziladigan* turlarga bo‘linadi. Biroq ushbu bo‘linish, bizning nazdimizda, o‘rganuvchiga doim ham o‘rganish jarayonida qulaylik keltirmaydi. Chunki o‘zbek tilida qo‘shma so‘zlarga yaqin bo‘lgan yana bir til birligi mavjudki, u *so‘z birikmasidir*. Uni qo‘shma so‘zdan farqlash esa biroz mushkul vazifa sanaladi. Ushbu til birligiga alohida ta‘rif beradigan bo‘lsak:

So‘z birikmasi – ikki va undan ortiq mustaqil so‘zlarning tobe grammatik aloqa asosida birikishi natijasida hosil bo‘lgan, borliqdagi narsa va hodisalarning nomini bildiradigan sintaktik tuzilma – nutq birligidir: *ignaning ko‘zi, oydin kecha, oliy ma‘lumot*.

Yuqoridagi ta‘rif va misollardan shuni ko‘rishimiz mumkinki, so‘z birikmasi va qo‘shma so‘z o‘rtasida o‘xshash tomonlar ham farqli tomonlar ham mavjud.

Ushbu ikkala til birligi o‘rtasidagi farqli tomonlarni aytib o‘tsak ular quyidagilarni tashkil etadi: a) qo‘shma so‘z qismlari morfema, so‘z birikmasining

qismlari soʻz hisoblanadi; b) qoʻshma soʻzning qismlari yaxlit holatda bir leksik maʼno ifodalaydi, soʻz birikmasining qismlari esa alohida-alohida leksik maʼno ifodalaydi; c) qoʻshma soʻz qismlari oʻz mustaqilligini qisman yoki toʻlaligicha yoʻqotadi, soʻz birikmasining qismlari esa oʻz mustaqilligini saqlaydi.

Yuqoridagilarga qoʻshimcha ravishda shuni ham aytib oʻtishimiz mumkinki, soʻz birikmasining tarkibiy qismlari yaʼni komponentlari gapda alohida-alohida gap boʻlagi vazifasida keladi va tahlil qilinadi. Bundan tashqari soʻz birikmasida ikki va undan ortiq mustaqil soʻzlar yonma-yon keladi yaʼni ajratib yoziladi. Xuddi ana shu yerda savol tugʻiladi. Agar qoʻshma soʻzlar ham ajratib yoziladigan boʻlsa ularni soʻz birikmalaridan qanday farqlash mumkin. Zero, tilimizda aynan oʻxshash hatto bir xil soʻzlardan iborat boʻlgan qoʻshma soʻz hamda soʻz birikmalari mavjud. Biroq ular maʼno va mazmun jihatidan bir-biridan tubdan farq qiladi. Masalan, *qizil olma* til birligi soʻz birikmasi sifatida olinganda u orqali olmaning rangi yaʼni uning qandayligi, sifati ifodalanadi. Ammo *qizilolma* birligi qoʻshma soʻz sifatiga kelganda olmaning naʼvi, uning turini ifodalashda xizmat qiladi. Bunda olmaning rangi aynan qizil boʻlishi unchalik ahamiyatsiz hodisa boʻlib qoladi. Shu maʼnoda, soʻzlar birikuvi narsa va hodisalarni farqlash uchun xizmat qilsa, soʻzlar qoʻshiluvidan obyektiv borliqdagi uchinchi bir narsa yoki hodisaga ishora qilinadi va nomlanadi. Bunday misollar tilimizda koʻplab uchraydi: Oq non – oqnon (nonning turi), issiq xona – issiqxona (teplitsa), oq suyak – oqsuyak (aslzoda), ogʻir oyoq – ogʻiroyoq (homilador), yengil oyoq – yengiloyoq (fohisha), qizil ishton – qizilishton (qush turi), qizil olma – qizilolma (olmaning navi), temir yoʻl – temiryoʻl (poyezd yoʻli), oq yogʻ – oqyogʻ (yogʻning turi), yangi yoʻl – Yangiyoʻl (shahar nomi), oq soch – oqsoch (xizmatkor), oq soqol – oqsoqol (qariya).

Ushbu sababdan kelib chiqqan holda biz shuni aytmoqchimizki agarda qoʻshma soʻzlar ham xuddi soʻz birikmalari kabi ajratib yoziladigan boʻlsa ularni ogʻzaki nutqqa farqlash mumkindir, biroq yozma nutqda farqlash qiyin boʻladi. Chunki, bu jarayonda ogʻzaki nutqda urgʻu farqlovchi roʻlini oʻynaydi. Urgʻu oʻzbek tilida aynan bir xil soʻzlardan iborat boʻlgan qoʻshma soʻz hamda soʻz birikmalarini bir-biridan farqlashga xizmat qiladi. Qoʻshma soʻzlarda ikkinchi komponent koʻproq urgʻu olishga moyil boʻlsa, soʻz birikmalaridagi bosh soʻz (birinchi kelgan soʻz) urgʻu oladi. Ushbu fikrimizni isboti sifatida quyidagi misollarni koʻrib chiqsak:

- Biz bugun botanika darsida *beshbarg* oʻsimligining xususiyatlari haqida oʻrgandik. – Oʻgʻlim, oʻzi bechora gulning *besh bargi* qolgan edi, nega ularni ham yulib tashlading?
- Anavi daraxtda turgan *qizilishton* tinmay daraxtni choʻqish bilan ovvora. – Oyim menga qizil koʻylagimga moslab yangi *qizil ishton* tikib berdilar.

Shunisi qiziqki, yozma nutq jarayonida soʻz birikmasi va qoʻshma soʻzni farqlashga xizmat qiladigan maʼlum bir meʼzonni topish mushkul. Shu sababli ham

agar barcha qo'shma so'zlar qo'shib yozilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu orqali til o'rganuvchi yohud tilga qiziquvchilar ushbu ikki til birligini yozma nutqda ham bemalol farqlay oladilar. Bizning taklifimiz shuki, so'zlar birikuvi mohiyatan narsa va hodisalarni farqlasa, so'z birikmasi deb qaralishi va ajratib yozilishi ma'qul, agar so'zlar birikuvi mohiyatan mushtaraklashib, uchinchi bir narsani nomlasa, qo'shma so'z deb qaralishi va qo'shib yozilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Endi esa fikrimizni ingliz tilidagi qo'shma so'zlar aytilishi va yozilishi borasidagi mulohazalar bilan davom ettiramiz. Ingliz tilida, ayniqsa, og'zaki nutqda, murakkab qo'shma so'zlar ko'p uchraydi. Oddiy qo'shma so'zlarga yana uchinchi va ko'plagan komponentlarni qo'shish orqali murakkab qo'shma so'zlarni yasash mumkin bo'ladi. Masalan, *law degree* (qonun qarori) qo'shma so'ziga uchinchi komponent bo'lmish *requirement* so'zi qo'shilsa – *law degree requirement* ya'ni *qonun qarori talabi* qo'shma so'zi kelib chiqadi. Unga yana to'rtinchi komponent *changes* so'zini qo'shish orqali *law degree requirement changes* ya'ni *qonun qarori talablaridagi o'zgarishlar* qo'shma so'zini yasash mumkin bo'ladi. Misollardan ko'rinib turibdiki mazkur murakkab qo'shma so'z ajratib yozilgan va shu jihati bilan o'zbek tilidagi murakkab so'z birikmalariga (qo'shma so'zlarga emas) o'xshab ketadi.

O'z navbatida ingliz tilidagi qo'shma so'zlarning morfologik xususiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, odatda qo'shma so'zda asosiy ma'no beruvchi qism bo'lishi zarur. Ushbu asosiy ma'no beruvchi qismni ba'zan hokim so'z deb ham ataymiz va u ko'pincha ingliz tilida qo'shma so'zning ikkinchi komponenti hisoblanadi. Masalan, *bellboy*, *spindry* va boshqalar. (Biroq ushbu ta'rif hamma tillar uchun ham mos kelavermaydi). Agar, ingliz tilida qo'shma so'zlarni yozishda keying satrga o'tishga to'g'ri kelib qolsa, qo'shma so'zning ma'no anglatadigan qisminigina keyingi satrga ko'chirib yozishimiz mumkin bo'ladi. Masalan, **snow-mobile**, lekin *snowmo-bile* emas.

Agar qo'shma so'zlarning turlarga bo'linishi yuzasidan berilgan ma'lumotlarga to'xtaladigan bo'lsak, qo'shma so'zlarning muayyan bir guruhiga masub bo'lgan so'zlar metoforik xarakterda bo'ladi. Misol uchun, *couchpotato* so'zini odamga nisbatan "televizor ko'rishg mukkasidan ketgan" ma'nosida qo'llash mumkin. Chunki kartoshka poyasi qanchalik qanchalik uzoq yerda ko'milib tursa, shunchalik chuqur ildiz tashlaydi. Demak, televizor ko'rishga mukkasidan ketgan odamning televizor qarshisidan turmasdan yotgan holati kartoshkaning yerga ko'milib yotgan holatiga o'xshatilyapti. Ushbu so'zning lug'aviy ma'nosi izohli lug'atda "sog'lomlashtiruvchi mashqlarni bajarmay, nuqul vaqtini televizor tomosha qilib o'tkazadigan odam" – deb keltirilgan.

Qo'shma so'zlar talaffuzi haqida shu narsani aytish joizki, har ikkala tilda ham ular urg'u olishlari bilan bir-biridan tubdan farq qiladi. Zero, milliy tilimizda qo'shma so'zlarda asosiy urg'u oxirgi komponentning oxirgi bo'g'iniga tushadi, masalan:

beshbarg, qizilishton. Ingliz tilida esa odatda qo'shma so'z birinchi komponentining birinchi bo'g'iniga tushadi: *earphones, blackboard*. Ikkala tilda ham qo'shma so'zlarning yuqorida zikr qilingan komponentlaridan o'zgalari yordamchi urg'u olishadi. Ular ham tillar xususiyatiga qarab ingliz tilida birinchi bo'g'in, o'zbek tilida ikkinchi bo'g'inga tushadi. Ingliz tilidagi qo'shma so'zlarning imlosida ikkinchi bir o'ziga xos xususiyat shundaki, chiziqcha bilan yoziladigan qo'shma so'zlarda ko'plik qo'shimchasi –s birinchi elementga qo'shilmaydi, balki so'zning oxirgi elementiga qo'shiladi (*brother-in-laws*). Ammo, mustasno holatlar ham uchraydi, masalan: *passers-by, editors-in-chief* va boshqalar.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, o'zbek tilida ham ingliz tilida ham qo'shma so'zlar yana bir muhim til birligi bo'lgan so'z birikmalari bilan calkashtiriladigan holatlar mavjud. Ularni bartaraf etish uchun, avvalo, yozuvda barcha qo'shma so'zlarni qo'shib yozish maqsadga muvofiqdir. Shu orqali bir xil komponentli ikki til birligini farqlashda ularning yozuvi ro'l o'ynaydi ya'ni qo'shib yozilsa qo'shma so'z, ajratib yozilsa so'z birikasi ma'nosida qabul qlinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev, B.Madaliyev va A.Madvaliyev – “O'zbek terminologiyasi va leksikologiyasi masalalari”, Toshkent-2017, 57-bet.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati, O'zbekiston nashriyoti, Toshkent -2020, 5-jild, 376-bet
3. O'zbek tilining izohli lug'ati, O'zbekiston nashriyoti, Toshkent -2020, 2-jild, 235-bet
4. O'zbek tilining izohli lug'ati, O'zbekiston nashriyoti, Toshkent -2020, 1-jild, 190-bet
5. N.Erkaboyeva “O'zbek tilida ma'ruzalar to'plami”, Toshkent: Akademnashr - 2015, 66-67-betlar